



QIZILPOYCHA (HYPERICUM L) O'SIMLIGINING DORIVORLIK
XUSUSIYATLARI

Xolmirzayeva Gulasal Zokirjon qizi

kimyo fanlari falsafa doktori Komiljon Ubaydullayev Tursunboyevich

Andijon Davlat Tibbiyot Instituti, O'zbekiston

E-mail: asaxolmirzayeva1999@gmail.com

Annotatsiya. O'zbekiston florasida o'ziga xos o'rin egallagan o'simliklardan biri bu Qizilpoycha - *Hypericum scabrum L.* bo'lib, u *Hypericaceae* (Zveroboydoshlar) oilasiga mansub. Mazkur maqolada *Hypericum scabrum L.* (xalq orasida Qizilpoycha nomi bilan tanilgan) o'simligining morfologik tuzilishi, kimyoviy tarkibi, botanik tasnifi, geografiyasi va farmakologik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, xalq tabobatida keng qo'llanilishi va dorivor xususiyatlari nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Hypericum scabrum L.*, morfologik xususiyatlari, geografiyasi, kimyoviy tarkibi, dorivorlik xususiyatlari, farmakologik xususiyatlari, flavanoidlar, vitaminlar, minerallar.

Abstract. *One of the plants that occupies a special place in the flora of Uzbekistan is Hypericum scabrum L., which belongs to the Hypericaceae family. This article discusses the morphological structure, chemical composition, botanical classification, geography and pharmacological properties of Hypericum scabrum L. (popularly known as Hypericum scabrum). Also, its widespread use in folk medicine and its medicinal properties are theoretically analyzed.*

Keywords: *Hypericum scabrum L., morphological features, geography, chemical composition, medicinal properties, pharmacological properties, flavonoids, vitamins, minerals.*

Qizilpoycha (*Hypericum scabrum*) -poyasi tik o'suvchi ko'p qirrali shoxlangan ko'p yillik o'simlik. Tanasi ozroq tukli bo'rtmalar hisobiga g'adir-budir. Ildizi yog'ochlashgan eni 4-10mm poyasi ko'p sonli qizg'ish-binafsha rangga bo'yalgan. To'pgul qismi kamroq shoxlangan. Barglarining uzunligi 10-15mm cho'zinchoq, lansetniksimon, cheti ichkariga o'ralgan, bezli, tukchalar bilan qoplangan. To'pgulini eni 3-5smli, ro'vak qalqonchasimon, to'pgul novdasi dag'al. Gultojibarglari to'kilmaydigan cho'zinchoq, teskari tuxumsimon, bezli kipriklardan iborat, uzunligi 4-10mm eni 2-4mm. Ko'saklari tuxumsimon 5-7 mm uzunlikda. Urug'i silindrsimon uzunligi 2mm zich qoplangan tukli bo'rtiqlari bilan oqish rangda. May-iyun oylarida gullab avgustda mevasi pishib yetiladi. Bu o'simlik Toshkent, Farg'ona, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tog'oldi mintaqasidan o'rta tog' mintaqalarigacha toshli va shag'alli qiyaliklarda uchraydi.

Qizilpoycha (*Hypericum scabrum L.*) tarkibida ko'plab foydali moddalar mavjud, jumladan: antioksidantlar, flavonoidlar (rutin, kversetin), fenol kislotalar va karotenoidlar



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



(violaksantin, lyutein va boshqalar), saponinlar, fitontsidlar-o'simlik "antibiotiklari", oshlovchilar va qatron moddalar, efir moylari, tokoferol, C, P vitaminlari, B vitaminlar guruhi, shuningdek temir, rux, marganets, kaliy, selen, mis bor.

Qadimgi Yunoniston va Rimda qizilpoycha dorivor o'simlik sifatida ishlatilgan, uning xususiyatlari haqida Gippokrat va Dioskorid yozgan. Rasiyada qizilpoycha 99 ta kasallikka qarshi o't deb hisoblangan. O'simlik damlamalari yurak kasalliklari, revmatizm, shamollash, bosh og'rig'i, jigar, oshqozon, siydik pufagi va boshqalarni davolash uchun ishlatilgan. An'anaviy va xalqona tibbiyotning turli tarmoqlarida esa antibakterial, antiseptik, og'riq qoldiruvchi, yarani davolash, siydik haydovchi va safro haydovchi, biriktiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.

O'simlik turli xil kasalliklarda (jigar, yurak, oshqozon, ichak, siydik pufagi) ishlatiladi. Qizilpoycha yuqori antibakterial, fenol birikmalar yig'indisi esa virusga qarshi faollikni ko'rsatadi. Tajribada o'rtacha diuretik ta'siri aniqlangan. Gullarning 10% li nastoykasi oltin tusli stafilokokk, streptokokk, ichak tayoqchasiga bakteriostatik va bakterisid ta'sir kursatadi.

Xulosa. Umuman olganda Qizilpoycha (*Hypericum scabrum* L.) O'zbekiston florasidagi qimmatli dorivor o'simliklardan biridir. Uning morfologik belgilari, keng tarqalgan areali va xalq tabobatida o'rnatilgan o'rni bu o'simlikni ilmiy jihatdan o'rganishga munosib ob'ekt sifatida ko'rsatadi. Farmakologik xususiyatlari nazariy asosda istiqbolli bo'lib, kelajakda tibbiy o'simlik sifatida qo'llanilishi mumkin. Tabiiy sharoitda o'suvchi bunday turlarni chuqurroq o'rganish, ularning hayotiy sikli va potentsial qo'llanilish imkoniyatlarini aniqlash zamonaviy ilm-fan oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saxobiddinov S.S "O'simliklar sistematiikasi-2" "Gulli o'simliklar" Toshkent. 1966
2. Xojimatov O.K, Haydarov D.T, "O'zbekiston Dorivor O'simliklar Atlasi" o'quv qo'llanma Samarqand.2021
3. "Fitoterapiya" uslubiy majmua Toshkent 2016
4. Maxsumov M.N, Malikov M.M "Farmakologiya" Toshkent.2016
5. Azizova S.S "Farmokologiya" Toshkent.2002
6. Xarkevich D.A "Farmokologiya" Meditsina.2005